



**UZLUKSIZ TA'LIMDA ZAMONAVIY
TENDENSIYA VA STRATEGIYALARNI JORIY ETISH:
MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI**

2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**UZLUKSIZ TA’LIMDA
ZAMONAVIY TENDENSIYA VA
STRATEGIYALARNI JORIY
ETISH: MUAMMOLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2025-yil 14-15-noyabr

QARSHI – 2025

UO`K. 378.014.5

BBK 74.200.55

“Uzluksiz ta’limda zamonaviy tendensiya va strategiyalarni joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Qarshi, 2025. – 1077 bet.

Mazkur to‘plamda uzluksiz ta’limda zamonaviy tendensiya va strategiyalarni joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Unda pedagogika, pedagogika nazariyasi va tarixi, psixologiya, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim sohalariga oid ilmiy maqolalar jamlangan bo‘lib, Uchinchi renessans poydevorini qo‘yishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyati, pedagogika va psixologiyaning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari, uzluksiz ta’limda fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro tajribalar va rivojlantirish strategiyalari tahlil qilingan. To‘plam pedagogika sohasi tadqiqotchilari, doktorantlar, magistrantlar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

MAS’UL MUHARRIR

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna – pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI

Raxmonov L.T.	– Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Xayitov X.S.	– Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a‘zosi, Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi professori, yuridik fanlari doktori
Ibragimov E.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori
Abdullayev O‘.Sh.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i
Olimov Sh.Sh.	– Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor
Oripova N.	– Osiyo texnologiyalar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Shodiyeva M.	– Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor
Salayeva M.	– Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Fayziyeva M.	– Qarshi davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori
Kamolov I.	– Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Axmedov I.	– Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi direktori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Hamroyev A.	– Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Raxmatova N.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrası mudiri
Normamatov X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
O‘sarova M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
Xo‘jamberdiyeva M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 30-sentabr, 3-son bayonnoma)

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2025.



2. Xushbaqov, E. A., & Axmedova, A. A. (2023). Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 45-52.
3. Mitra, S. (2013). The Hole in the Wall: Self-Organizing Systems in Education. TED Talk va maqolalar.
4. A. Umirov Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Qarshi. 2023.- 322 b

“ASQARTOG‘ TOMONLARDA” QISSASINING BADIY XUSUSIYATLARI

Maftuna NORQULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Ahmad A'zamning “Asqartog‘ tomonlarda” qissasi tahlilga qilinadi. Qissaning kompozitsion qurilishi, badiiy obrazlar tizimi, syujetning o‘ziga xosligi, ichki monologlar, badiiy detal asar strukturasidagi vazifasi atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, muallif badiiy konsepsiyasi, uslubiy o‘ziga xosligi va sintez muammosiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: qissa janri, badiiy kompozitsiya, qahramon obrazi, kiritma hikoya, badiiy sarlavha, epigrafi, manolog.

Ahmad A'zam ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, epik tafakkur tizimining barcha janrlarida samarali ijod qilgani ko'zga tashlanadi. Uning asarlarida odam va olam, inson va jamiyat, ijtimoiy-maishiy masalalar markaziy muammo sifatida badiiy talqin qilinadi. Yozuvchi nasrida roviyning sinchkov nigohi, ramziy tasvir, kinoya, ruhiy kechinma, qalb dialektikasi va falsafiy mushohada yetakchilik qiladi. Ayniqsa, “Asqartog‘ tomonlarda” qissasida shaxs fojiasi, davr muhiti psixologik, falsafiy va ramziy holatda badiiy aks ettiriladi. Qissada ijodkor va ziyoli qahramonning ijtimoiy-maishiy muhitdagi fojiaiy taqdiri, ichki ma'naviy parokandalik va o'z-o'zini taftish qilish kabi muammolar asar markaziga qo'yiladi. Qissa syujetida voqelik tashqi harakatdan ko'ra, ichki kechinmalar dinamik holatda rivojlanib boradi. Asarda asosiy voqealar institutda yuz berib, anonim anketa, fakultet janjallari va qahramonning do'stlari, Ofiyat bilan bo'lgan suhbatlari atrofida shakllanadi. Qissa syujetida voqelik izchil emas, balki parcha-parcha ko'rinishlarda tasvirlanadi. Qissa qahramoni Mahdi Ashrapov orqali adib insonning ijtimoiy tazyiqlar ostida o'zini yo'qotishi,



yolg'izlik, umidsizlik, botiniy iztirob va o'zini anglash jarayonini badiiy talqin qiladi. U hayotida har xil rollarni ijro etganini, ammo hech biri chinakam "men" emasligini anglaydi. "Men bitta odam emasman, men – tumonatman, chaman odamzorman, to'p pulday turlanib, bu dunyoda qanday yashayapman o'zi..."²⁶, deb o'zini ko'plab bo'laklarga ajratib ko'radi. Bir bo'lagini Shodi akaga, bir bo'lagini Tangirga, bir bo'lagini Mahmudali akaga va boshqasini Haqberdiga ajratib, ularning umrida yashayapman, deb o'ylaydi. Ko'rinadiki, qahramon botiniy dunyosi, ma'naviy qiyofasida o'z ichki "men"ini izlash, hayot mohiyatini anglashga bo'lgan intilish tinchlik bermaydi.

Qissaga Alisher Navoiyning mashhur bayti epigraf qilib olingan:

"O'z vujudingga tafakkur aylagil,

Har ne istarsan o'zingdan istagil..."²⁷. Epigraf asarning eng muhim komponenti hisoblanadi va muallif badiiy niyatini umumlashtirib, asar g'oyasini ochuvchi kalit vazifasini bajaradi. Qissada keltirilgan Alisher Navoiyning mazkur bayti qahramon ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Ya'ni u boshqalardan emas, o'zidan norozi. Qaniydi, u Bahri Muhitga ketganida! Qaniydi, Kalkuttadagi odam u bo'lganida! Ammo hech biri bo'lmadi, u faqat istadi, lekin qadam qo'ymadi. Shu bois qahramon hayotga emas, balki, ichi-ichidan o'ziga isyon qiladi. Adabiyotshunos M.Sheraliyeva qissa bosh qahramoni Mahdi haqida o'rinli fikrlarni bildiradi: "Mahdi Ashrapov atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilar ekan, o'zini va o'zgani anglashda bir pog'ona yuqori ko'tariladi, uning o'zi va o'zga haqidagi ilgari va hozirgi tasavvurlari o'rtasida farq, ba'zan esa ziddiyat paydo bo'ladi. Bu holat o'z navbatida qahramonning o'z "men"ini qanday idrok etishi bilan bog'lanadi, qahramonni o'ylantirgan barcha muammolarning ildizi uning o'ziga borib taqaladi"²⁸.

Qissa avvalida qahramonning ichki ziddiyatlar bilan to'la, ruhiy iztiroblar, kechikkan armonlar, o'z-o'ziga ishonchsizlik va o'zlikni anglash yo'lida kechayotgan psixologik holati tasvir etiladi. Dotsent Mahdi Ashrapov hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan, hayotidan ko'ngli hotirjam, turmushi ham yaxshi, o'zi yoqtirgan qizga uylangan, lekin nimadir kam, u esa unga intiladi, qayoqlargadir ketishni, boshqa ish bilan shug'ullanishni xohlaydi, ammo ketolmaydi, ketishiga esa nimadir yoki kimdir to'sqinlik qiladi. Qissaning ilk jumlasidan boshlab qahramonning ruhiy-psixologik holati tasvirlanadi. U har kuni tongda yangi rejalar bilan uyg'onadi, o'rnidan turib ularni amalga oshirishga chog'lanadi, ammo turishiga nimadir halaqit qiladi, ana turaman mana turaman deguncha, oftob nurlari atrofga yoyiladi, endi esa yotish imkonsiz deya, ko'rpadan istamas qo'zg'aladi, o'rnidan turadi-yu, yana turmush tashvishlariga sho'ng'ib ketadi.

²⁶ Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 238-B.

²⁷ Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 238-B.

²⁸ М.Шералиева. Кинофильм асар қаҳрамони ижтимоий-психологик тип сифатида. Илмий хабарнома, АДУ. №3. 2013 й. Б. 57.



Ahmad A'zam "Proza odam odam bilan bemalol ochilib suhbatlashgani singari tabiiy bo'lishi kerak," – deydi. Darhaqiqat, adib qissalarining barchasida reallik ko'zga tashlanadi. Tabiiy tasvirlar, real voqelik kitobxonni asar olamiga olib kiradi. Adib nasrida asar qahramonlarini ham o'zining ruhiyatiga mos tushadigan qilib tanlaganligini guvohi bo'lamiz. Ya'ni, Ahmad A'zam ijtimoiy hayotda yon-atrofidagi voqea-hodisalarga, poraxo'rlik, ilmsizlik, axloqsizlik, mansabparastlik kabi illatlarga befarq emas. Qissa qahramonlari tabiatida ham bu yaqqol namoyon bo'ladi. Mahdi o'zi faoliyat yuritayotgan fakultet muhitini nobopligini biladi, qissa davomida haqiqatni yuzaga chiqarish, hamkasblarini to'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun harakat qiladi.

Qissa sarlavhasidagi Asqartog' – oddiy geografik makon emas, balki u muallifning ruhiy vatani, orzu, ichki intilish kabi tushunchalarni anglatadi.

Adibning "Hali hayot bor...", "Bu kunning davomi", "Quroq" qissalaridan farqli o'laroq, "Asqartog' tomonlarda" qissasining o'ziga xosligi uning sintetik tabiatida ko'rinadi. Qissada sintetik hodisani belgilovchi real voqelik, xotiralar, xalqona ohang, matal va hikoyadan keng foydalaniladi. Bunday badiiy komponentlar uyg'unlashtirilib, yaxlit kompozitsiya va g'oya yaratiladi. Sintetizm tushunchasi analiz va sintez jarayonlarini qamrab oladi. "Asqartog' tomonlarda" qissasining voqeligi, qahramon xotiralari, matal va hikoya kabilar badiiy asarning analizi bo'lsa, ana shu bo'laklarni birlashtirish, badiiy yaxlitlikda qayta tiklash sintez hisoblanadi.

Muallif qissada roviy vazifasini qahramonga yuklaydi. Syujet chizig'ida bolalikdan dotsentlikka qadar voqealar aralash-quralash berib boriladi. Qahramonning o'qishga qanday kirib qolganligi, agar o'qishga kirmaganda kim bo'lishi, qayerda yurishi, qanday kasbni tutishi, xotini ham Ofiyat emas, umuman boshqa ayol, farzandlari ham boshqa bo'lishi haqida o'ylaydi. Lekin o'zini boshqa joyda, boshqa kasbda, boshqa ayol, boshqa farzandlarning otasi sifatida tasavvur qilolmaydi. Lekin qahramonning hayotiy tanlovlari ham o'z irodasi bilan amalga oshmagan, balki tasodiflar tufayli sodir bo'lgan. "Qahramon o'zining o'qishga kirib qolishini mutlaqo tasodif deb biladi. Haqiqatan ham, adabiyotni sevgan, "yiqitish u yoqda tursin, "to'rt" qo'yish ham noinsoflik" bo'ladigan", ammo rektorning alohida ro'yxatiga kiritilmagan bolaning o'qishga kirib qolishi tasodifdan boshqa narsa emas"²⁹.

Talabalik yillari bilan bog'liq xotiralarni yodga olganda, o'qigan yillari juda uzoq kechganday tuyuladi. Ota-onasining bag'ridan uzoqlashib, begona yurtda, kichkina hujrada do'stlari bilan o'tgan kunlarini, hayit bayramidek orziqib kutadigan suhbat kechalarini xotirlaydi. Ayniqsa, kechada Shodi akaning laqqi donishmandligi ularni sevintiradi. Shodi akaning yoshi ulardan katta, o'qishga kech kirgan. O'qishi ham yaxshi emas, imtihonlardan doim yiqilib chiqqan paytlari u "E-e, bu ilmlaring bizga to'g'ri kelmaydi,³⁰" derdi.

²⁹ М.Шералиева. Киноявий асар қаҳрамони ижтимоий-психологик тип сифатида. Илмий хабарнома, АДУ. №3. 2013 й. Б. 58.

³⁰ Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 170 B.



Mahdi Ashrapov kursdoshi Haqberdi portretini chizar ekan, qora choponiga o'ranib yotishini, burnini tinmay tortishini, bundan jahli chiqib, tishini-tishiga qo'yib chidaganligini aytadi. Haqberdi ham Mahdini yoqtirmaydi. Ular bir-birini so'zsiz yomon ko'rishsa ham, aslo yoqalashishgacha borishmagan. Haqberdi doim Mahdiga hasad qilgan, shu hasad tufayli qishloqda yashab bo'lsa-da, ilmiy ishini ham yozib, himoya qilgan. Mahdi ishlaydigan fakultetga ministrlilik yordami bilan ishga kirgan. "Odamning hayoti tez o'zgarar, oldinga yo orqaga ketar, o'zi ham yo yaxshilanar yo past tushar, ammo fe'li birday turaverar ekan, men buni Haqberdida ko'rdim, hali ham o'sha-o'sha, faqat biqinib olgan..." Mahdi uchun Haqberdi yillar o'tsa-da, o'zgarmagan. Talabaligida qora choponiga qanday o'ranib olsa, hozir ham shunday biqinib oladi. Fe'li ham o'sha-o'sha. Haqberdining o'ylamay tashkil etgan "anketa ishi" bir maromda faoliyat yuritayotgan fakultet tinchini buzadi. "Anketa" sababli o'qituvchi va talaba o'rtasida konflikt boshlanadi, talabalarining o'qituvchilarga munosabati o'zgaradi. Talabalar tomonidan baholangan bu ro'yxat, fakultetdagi ilmiy va axloqiy muhitning yuzini ochib beradi. Bu qog'ozdagi har bir raqam, musbat-manfiylar butun tizimning, ma'rifat maskani bo'lmish fakultetning aslida qanday ekanligi haqidagi savollarga javob beradi. Haqberdi "anketa"da o'qituvchilarning "bilim saviyasi", "dars saviyasi", "muomila madaniyati", "talabchanligi", "xarakteri"ni baholash uchun ustunlar qo'yib chiqqan. Talabalar esa o'z bahosini "musbat" yoki "manfiy" shaklida belgilashi lozim. Anketani to'ldirgan talabaning ism-sharifi mahfiy qoladi. Anketadagi raqamlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida nizo kelib chiqishiga sababchi bo'lgan, ba'zi o'qituvchilar o'ziga qo'yilgan bahodan norozi, ba'zilar esa baholardan havotirga tushishadi. Asl muammo esa bilim berish va axloq o'rgatish maskanining adolat, mehnat, halollik kabi tushunchalardan yiroqlashganida ko'rinadi. Fakultetda ko'tarilgan bu muammo avj pallasiga chiqqan, hamma bir-biriga qarshi tish qayraydi, ammo bu mojarolar tepasida turgan Haqberdi esa ko'rinmaydi. Shu vaziyatda uning odam aytishga ham uyaladigan joyidan chipqon chiqib, gazak olib, yurgizmay qo'yibdi.

Anketalardagi baholar fakultetdagi ayrim o'qituvchilarning asl qiyofasini ko'rsatadi. Masalan, o'zini "singarmonizmning otasi" deb hisoblaydigan Yetmishboyevga talabalar tomonidan 92% "manfiy" qo'yilishi – bu faqat o'qituvchining bilim saviyasini ko'rsatibgina qolmay, u dars beradigan avlodning fojiasini ham ko'rsatadi. O'qituvchilar o'zlariga qo'yilgan baholardan o'zlarini o'zgartirish nuqtayi nazaridan emas, balki "sharmandalik", "obro'ning ketishi" jihatidan yondashadilar. Ularning asosiy tashvishi – tizim ichida o'z o'rnini, mavqeyini saqlab qolishdangina iborat. Fakultet dekani "Boybo'riby"(dekan Mahmudali aka) va Orzimurodovlar soha vakillari sifatida bor kuchlarini bu haqiqatni bostirishga, murosa qilishga, "anketa"larni yoqib yuborishga safarbar qilishadi. Shu o'rinda gugurt ramzga aylanadi, ya'ni haqiqatni yoqib yuboruvchi buyum sifatida ko'rinadi.

Qissada talaba haqiqatni ifoda etuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Oldin auditoriyalarda talabalar mo'min-qobil ko'rinsa, keyingi voqealarda ularning yuzi tanish-u,



o'zi notanish g'animlarga aylanishadi. "Anketa" ishidan keyin talabalarning fikri muhim mezonga aylanadi. Ular endi o'qituvchilarning har bir xatti-harakatlarini, gaplarini imtihon qiladi. Ayni vaqtda bu holat o'qituvchilar va butun fakultet uchun xavfga aylanadi. Haqberdining "anketa"si fakultet muhitini buzmaydi, balki u allaqachon buzilgan, bu hujjat esa o'sha buzilgan tizimni qog'ozga tushirilgan shakli bo'lib, asl fojiani ochib berishga xizmat qiladi. Suhrobning "hali o'lmagan odamlarning janozasida o'tirganday bo'lyapman" degan jumlasida muhit tanazzulining yorqin ifodasi aks etadi.

Suhrob obrazi qissada halollik ramzi sifatida ko'rinadi. Mahdi Ashrapov va Suhrob obrazlari so'rovnomadagi haqiqat uchun kurashadi. Haqiqatni yuzaga chiqarish imkonsiz ekanligini bilgan Suhrob o'z ixtiyori bilan ariza yozib ishdan ketadi. Uning ishdan ketishi nobop muhitda halollik degan tushunchalarning yo'qligini ko'rsatadi. Avvalida latifachi, dangasa, oliftaroq bo'lib ko'ringan Suhrob "anketa" voqeasidan keyin o'zini tanqid qiladi: "Dars o'tishim Sunnatovnikidan hech ham a'lo emas... Noqulay-e!"³¹. Uning shu halolligi unga bu muhitda yashashga imkon bermaydi. Haqiqatni ko'ra bilish, halollik kabilar uni chin ilmiy odamga aylantiradi.

Mahdi qaror qiladi: "Men ketmayman.". Bu qarorda g'alaba emas, balki og'ir yuk bor. Chunki u yolg'iz. Suhrob ketgan, Orzimurodov badar bo'lgan, Haqberdining ham vaziyati og'ir. "Odamlarni faqat maqsadning o'zigina do'st qilolmas ekan"³², deydi Mahdi. U insoniy munosabatlarning soxtaligi va mo'rtligini anglaydi.

Adabiyotshunoslikda qissa janri roman va hikoya oralig'ida joylashgan o'rta epik janr sifatida ko'riladi. U voqelikni kengroq qamrab olishi bilan hikoyadan farqlansa, ixchamlik va bir qator hayotiy lavhalarga boy ekanligi bilan romandan ajralib turadi. Qissaning ana shu oraliq tabiati uning tarkibida boshqa janr elementlaridan foydalanishga imkon yaratadi. Epik janr tarkibida boshqa janrning kuzatilishi adabiyotshunoslikda janrlar sintezi hodisasi sifatida qaraladi. Bu badiiy asarning kompozitsion, mazmuniy, badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, ta'sirchanligini oshiradi. "Asqartog' tomonlarda" qissasida Shodi obrazi bormagan Pomirida ko'rgan ovchisi haqidagi hikoyani keltiradi. Qissa tarkibida bu hikoyaning kelishi syujetni rivojlanishi va Shodi obrazining hayot haqidagi mushohadalarini ifodalaydi.

Epik asarlarda monolog qahramonning o'z-o'zi bilan suhbat, ichki dunyosini ochib beruvchi badiiy vosita hisoblanadi. Qissada ichki hamda tashqi monolog shakllari uchraydi. Tashqi monolog Shodi obrazi nutqida ko'rinadi va uning boshqalarga qarata aytgan, ammo o'z ruhiyatini ochadigan nutqi hisoblanadi. Ichki monologda esa Mahdining fikrlari, ichki kechinmalari aks etadi. Qissaning so'nggi jumlasida Mahdi ichki monologi bilan yakunlanadi: "Mahdi! Deyman intikib – asqartog'larim – avlodlarimni chaqirib boryapman, tovushim, o'g'illarim, qizimning ovozida qaltirab aks-sado beradi – jo'ralar, uzoq yashayman!... Uzoq ming ovozlarni eshityapman..."³³. Qahramonning o'z ismiga murojaat qilishi, oddiy

³¹ Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 230 B.

³² Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 229 B.

³³ Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 239-B.



murojaat emas, balki o'zini anglashning, o'zligini qayta tiklashning ko'rinishi hisoblanadi. Bu qahramondagi ichki uyg'onish bo'lib, inson o'z ismi orqali o'z hayotini va uning ma'nosini qayta anglashga harakat qiladi. Asardan keltirilgan parchada Asqartog' va avlodning yonma-yon kelishi tabiat va insonning bir-butun, ajralmasligini ko'rsatadi. Qissa avvalida qahramonning monologlarida ruhiy tashnalik ko'rinsa, so'nggi jummalarda esa bu tashnalik yo'qolib borayotganligini, u endi ruhiy jihatdan ustunligini ko'rishimiz mumkin.

Mahdi qayoqlargadir ketish, qaytadan yasharib, turmushini ham qaytadan boshlashni, borolmay qolgan joylariga borishni, ko'rolmaganlarini ko'rishni xohlaydi. Qahramon intilgan, uning ruhiy hammaslagi bo'lishi mumkin bo'lgan makon – Bahri Muhit. Bahri Muhit qahramon uchun yangi imkoniyat, o'zini yangi inson sifatida boshlash uchun joy. Bahri Muhitning qahramon uchun yangilanish makoni sifatida tasvir etilishi o'zbek nasrida kam uchraydigan ramziy makon tasviriga yaqqol misoldir. U Bahri Muhitga intiladi-yu, ammo borolmaydi. Ofiyat bilan tanishgan paytida u Bahri Muhitga ketgan bo'lishi mumkin edi, uning uchun Bahri Muhitga bormaganligi, bu orada Ofiyat bilan tanishganligi, o'ziningina emas, Ofiyatning hayoti o'zgarib ketishiga, bolalarining dunyoga kelishiga, yashashiga sababchi bo'lishini tasodif deb biladi. U xotini Ofiyat bilan to'yda tanishib qolib, oila qurishgan. Ofiyat – hindshunos, o'qish davomida o'n oy Hindistonda amaliyot o'tagan. Ikkalasining suhbatlarida Ofiyat Hindiston bilan bog'liq xotiralarini eslab gapiradi, u esa ayol boshi bilan shunday ajoyib narsalarni guvohi bo'lgan xotiniga hasadi keladi, xotini xotiralarini so'zlayotganda u o'zini qiziqarsiz odamligidan ko'ngli cho'kadi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zam nasrida, jumladan, "Asqartog' tomonlarda" qissasida qahramonlarning ichki monologi, ruhiy-psixologik holati, insonning yolg'izligi, o'zligini anglamay o'tib ketish qo'rquvi orqali o'zbek nasridagi o'ziga xos uslub yo'sini kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi – Toshkent: 2018. 238-B.
2. М.Шералиева. Киноявий асар қаҳрамони ижтимоий-психологик тип сифатида. Илмий хабарнома, АДУ. №3. 2013 й. Б. 57.
3. К.Намраев. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: "Nurafshon bussines", 2020. –B.140.
4. Юлдошев. Суз ёлкини/ Рухият жилолари (Ахмад Аъзам). Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий кйи, 2018. - Б. 504.



Маматова Меҳрибону Улуғбек қизи	ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ МУТАХАССИСЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ, ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ	1042
Sobirova Zarnigor G'anijon qizi	TRANSFORMER MODELLARI YORDAMIDA O'ZBEK TILI MATNIDA TINISH BELGILARINI TIKLASH	1046
Nazira Sobirova G'anijon qizi	O'ZBEKCHA MATNLARNI QAYTA ISHLASH VA ME'YORGA KELITIRISH	1052
Azamat Umirov Abdinazarovich	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI ORQALI SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH	1059
Maftuna NORQULOVA	“ASQARTOG‘ TOMONLARDA” QISSASINING BADIYY XUSUSIYATLARI	1062

